

ESHITISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARING IDROK XUSUSIYATLARINING O'ZIGA XOSLIGI

Abduxalilova Marjona Ixtiyor qizi

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti

ANNOTATSIYA

Idrok jarayonida qaysi analizatorning yetakchi rol o'ynashiga qarab: ko'rish, eshitish, teri tuyish knestezik harakat, hid bilish va ta'm bilish idroklari bir-biridan farq qilishi hamda yashash shakllariga qarab idrok: fazoni vaqtini va harakatni idrok qilishga bo'linishi, idrok faollik darajasiga qarab: ixtiyorsiz va ixtiyoriy shakllarga bo'linishi haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'z: Idrok, differensial, knestezik harakat, perzeptiv, V.Karimova, M.Vohidov, I.I.Sechenov, ixtiyorsiz va ixtiyoriy idrok.

INDIVIDUALITY OF PERCEPTIVE CHARACTERISTICS OF CHILDREN WITH HEARING DEFECTS

ABSTRACT

Depending on which analyzer plays a leading role in the process of perception: sight, hearing, kinesthetic movement, perception of smell and taste differ from each other, and perception depending on the forms of living: perception of space, time and movement. It is said that perception is divided into involuntary and voluntary forms depending on the level of activity.

Key words: Perception, differential, kinesthetic action, perceptive, V. Karimova, M. Vohidov, I.I. Sechenov, involuntary and voluntary perception.

Idrok – bu inson analizatori yoki analizatorlar sistemasiga bevosita ta'sir etuvchi, narsa va hodisalarining butunligicha yoki ularning turli xususiyatlari o'zaro aloqasining

shakllanish jarayonidir. Idrok turli sezgilar asosida shakllanadi. Ko‘rish analizatori boshqalariga nisbatan atrof olam haqidagi turli xil axborotlarni olishga yordam beradi. Eksperimental psixologik uslublarning ishlab chiqilganligi tegishli ahamiyat kasb etadi.

Idrok etishda analiz qanchalik aniq bo‘lsa, sezish shunchalik sifatli, kuchli va to‘la, aniq bo‘lib ular qo‘zgatuvchilarda differensial aks ettiriladi.

Sog‘lom bolalarga nisbatan kar bolalar atrof vaziyatga ko‘z yogurtirib chiqqanda kam narsalarni idrok etadi. Bu ularga atrof - muhit bilan tez tanishishga, ma’lum bir predmetni, hodisani ajratib olishni qiyinlashtiradi.

Ma'lumki, idrok sezgi organlari asosida vujudga keladi. Har bir idrok jarayonida bir necha sezgi organi ishtirok etishi mumkin. Lekin ulardan biri eng muhim o‘rinda turadi. Masalan: suratni idrok qilishda ko‘rish organi, musiqa va nutqni idrok qilishda eshitish organi bosh o‘rinda turadi. Idrok jarayoni qaysi sezgi organining yetakchilik o‘ynashiga qarab idrokni bir necha turlarga ajratish mumkin. Masalan: ko‘rish idroki, eshitish idroki, hid idroki, ta'm idroki va boshqalar. Bundan tashqari idrokning aralash turi ham mavjud bo‘lib, bunda bir necha analizator birgalikda ishtirok etadi.

Psixologik adabiyotlarda idrok tushunchasiga turlicha ta’riflar uchraydi.

Jumladan M.Vohidovning "Psixologiya" mashg‘ulotligida idrok deb sezgi a'zolarimizga ta'sir etayotgan narsa va hodisalarini yaxlit holicha aks ettirishga aytildi, deb keltiriladi.

V.Karimovaning "Psixologiya" o‘quv qo‘llanmasida idrok bu- bilishimizning shunday shakliki, u borliqdagi ko‘plab xilma-xil predmet va hodisalar orasida bizga ayni paytda kerak bo‘lgan obyektni xossa va xususiyatlari bilan yaxlit tarzda aks ettirishimizni ta’minlaydi. Kishi narsa-hodisalarning ayrim xossalarini sezadi. Uni bir butun holda idrok qiladi. Chunki narsa va xossa bir-biridan ajralgan holda mavjud bo‘lmaydi. Odam narsalarni idrok qilayotganda uning ayrim xossalarini sezadi. Masalan: chaqmoq qandni idrok qilinadi, uning shirinligi seziladi. quyoshni idrok qilinadi, uning issiqligi seziladi va boshqalar.

Idrokning quyidagi muhim xususiyatlari mavjud:

• Idrokning muhim xususiyatlaridan biri - bu faol ravishda bevosita aks ettirish imkoniyatining mayjudligidir. Odatda insonning idrok qilish (perseptiv) faoliyatini uning o‘zlashtirilgan bilimlari, to‘plagan tajribalari shuningdek, murakkab analitik-sintetik harakatlar tizimi zamirida yo‘zaga keladi.

• Idrokning yana bir muhim xususiyati, uning narsa va hodisalarni umumlashgan holda aks ettirilishdir. Ma'lumki, inson psixikasiga kirib borayotgan ko‘p qirrali, ko‘p yoqlama amallari idrok qilish bilan cheklanib, chegaralanib qolmasdan, balki o‘sha majmua aniq qism yoki hodisa sifatida baholanadi.

• Idrokning navbatdagi xususiyati uning harakatchanligi va boshqaruvchanligidir. Idrok jarayonida deyarli barcha sezgilarimiz ishtirot etsa ham idrok sezgilarimizning oddiy yig‘indisidan iborat deb bo‘lmaydi. Idrok jarayonida turli sezgilarimizdan tashqari odamning shu paytgacha orttirilgan turmush tajribasi ham ishtirot etadi. Odam o‘z turmush tajribasida juda ko‘p narsa va hodisalarni takror-takror idrok qilgani tufayli odamning idroki anglanilgan harakatlarga egadir.

Idrok jarayonida qaysi analizatorning yetakchi rol o‘ynashiga qarab: ko‘rish, eshitish, teri tuyish knestezik harakat, hid bilish va ta’m bilish idrokлari bir-biridan farq qiladi.

Yashash shakllariga qarab idrok: fazoni vaqtini va harakatni idrok qilishga bo‘linadi.

Idrok faollik darajasiga qarab: ixtiyorsiz va ixtiyoriy shakllarga bo‘linadi. Bunga sabab idrokning diqqat bilan uzviy bog‘liqligidir. Diqqat idrokning faolligini oshiradi hamda idrokning mukammal, ravshan, aniq bo‘lishiga xizmat qiladi.

Mashhur rus fizologlaridan I. I. Sechenovning ta’kidlashicha, odam hozirgi idrokidan hosil bo‘lgan obrazlar ilgarigi idroklarida vujudga kelgan va xotirasida saqlanib qolgan obrazlar bilan taqqoslab ko‘radi. Agar hozirgi idrokdan hosil bo‘lgan obraz ilgari xuddi shu narsani idrok qilishdan vujudga keltirilgan obrazga to‘la mos kelsa, ayni choqda idrok qilayotgan narsasini taniydi. Aksincha, agar hozirgi idrokdan hosil bo‘lgan obraz ilgarigi obrazga mos kelmasa, ya’ni ayni chog‘da idrok qilayotgan narsani odam tanimasa idrok davom ettirila beradi. Idrok jarayonida nutq va

tafakkurning qatnashishishunda namoyon bo‘ladiki, har bir idrok nihoyasiga borib, hukm shaklida, ya’ni chigal gap shaklida ifodalanadi

Ma’lumki idrok odatda ixtiyoriy va ixtiyorsiz bo‘ladi. Ixtiyorsiz idrok hamisha ixtiyorsiz diqqat bilan bog‘liq bo‘lib, muayyan bir maqsadsiz, hech qanday iroda kuchi sarf qilinmasdan amalga oshiriladi. Ixtiyorsiz idrok biror narsani to‘satdan, ta’sir etayotgan narsalarning boshqa narsalardan keskin farq qilishi, haddan tashqari originalligi, yorqinligi natijasida yuzaga keladi. Ixtiyorsiz idrok odamning butun faoliyati davomida uzlucksiz davom etib, ayrim paytlarda ixtiyoriy idrok bilan almashinib turadi. Lekin shunday bo‘lsa ham inson hayotida ixtiyoriy idrokning roli benihoya kattadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

- 9.** Mamarajabova Z. N Surdopedagogika-T.,2017.
- 10.** Fayziyeva U, Nazarova D.A, Qodirova F. Surdopedagogika-T: Sanostandart, 2012
- 11.** U. Fayzieva Kar bolalar maxsus mактаб-internatlarining 1-5 sinflari uchun ona tili fanidan davlat ta’lim talablari va dasturi-T.: O‘qituvchi, 2014
- 12.** Nurmuxamedova L.SH. Oilada nogiron farzandni tarbiyalashning pedagogik xususiyatlari.: Ped. fan. nomz.dis. ... avtoref. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU. 2005.
- 13.** P. Po‘latova, L. Nurmuhamedova, Sh. Amirsaidova Maxsus pedagogika-T.: Fan va Texnologiyalar ,2014
- 14.** D.A. Nurkeldiyeva, M.U. Hamidova Rivojlanishida nuqsoni бўлган bolalar diagnostikasi.
- 15.** www.defektolog.uz